

EMLASHNING INSON XAYOTIDAGI O'RNI

Xayitboyeva Zulfizarxon Saparbayevna-

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi
Andijon filiali o'qituvchisi
Tel: +998902545349

Masardinov Xushnodbek Bozorboy o'g'li-

Paxtaobod tumani tez tibbiy yordam bo'limi navbatchi feldsheri
xushnodbekmasardinov@gmail.com +99894 385 36 25

Annotatsiya.

Xozirgi pandemiya sharoitida bu maqolada emlashning inson xayotidagi o'rni, emlashni o'z vaqtida olishning qanday foydalari borligi, yurtimizda bunga oid qanday ishlar amalga oshirilayotgani bayon etilgan.

Kalit so'zlar: emlash, inson xayoti, aktiv immunitet, passiv immunitet, gamma-globulinlar, zardob, kasallikka qarshi chidamlilik, pandemiya.

Xozirgi pandemiya sharoitida dunyo axolisini qiynab kelayotgan masala bu insonlarning kasalliklarga qarshi immunitet xosil qilishdir. Buning samarali usullaridan biri bu- emlashdir. Emlash tufayli inson organizmida kasalliklarga qarshi sun'iy immunitet hosil bo'ladi. Buning natijasida organizmda kasalliklarga qarshi kurashish jarayoni kechadi. Bu esa organizmning sog'ayishiga olib keladi. Qadim zamonlarda butun qishloqlarni ko'plab pandemiya kasalliklar (vabo, o'lat...) odamlarni qirib yuborgan. Bunga sabab insonlarda bu kasalliklarga qarshi immunitet yo'q bo'lgan. Xamda bu kasalliklarga qarshi emlash jarayonlari yoqligi tufayli butun bir qishloqlar yo'q bo'lib ketgan. Xozirda butun dunyoda, xususan yurtimizda ham kasalliklarga qarshi emlash jarayonlari o'z vaqtida samarali bajarilib kelinmoqda. Buning natijasida yoshlik, chaqaloq vaqtidanoq immunitet xosil bo'lib, ko'plab xavfli kasalliklarning oldi olinmoqda.

Chaqaloqlarni tug'ilgan vaqtida unga tug'ruqxonada olishi lozim bo'lgan emlashlar va ularni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan "Emlash pasporti" beriladi. Emlash pasportida har bir o'tkazilgan va navbatda o'tkazilishi lozim bo'lgan emlashlar ko'rsatilib qo'yiladi. Bu ham avlodga jiddiy e'tiborligidan darak.

O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati bosh boshqarmasi, 25.07.2017 yildagi 0239-07/3 son qarori bilan Respublikamizda yuqumli kasalliklar immunoprofilaktikasi umumiy qoidalari ishlab chiqilib, hozirda bu borasida davomli ishlar amalga oshirilmoqda.

Emlash, ehtiyotdan emlash (immunizatsiya, vaksinatsiya)- odam organizmiga vaksina, anatoksin, gamma-globulin, immun zardoblar yuborib, yuqumli kasalliklar yuqushining oldini olish. Aktiv va passiv immunitet hosil qilish uchun o'tkaziladi.

Aktiv immunitet hosil qilish uchun odam organizmiga vaksinalar yoki anatoksinlar yuboriladi. Vaksinalarda o'ldirilgan yoki kuchsizlantirilgan bakteriyalar bo'ladi, organizmga vaksinalar yuborilganda organizm ularga qarshi antitelalar deb ataluvchi o'ziga xos ximoya moddalari ishlab chiqaradi. Aktiv immunitet xosil qilish maqsadida qilinadigan emlash planli tartibda va epidemik ko'rsatmalar bo'yicha o'tkaziladi. Muayyan vaqtda o'tkaziladigan planli emlashga epidemic sharoitdan qat'iy nazar, chechak, sil, difteriya, polimiyelitga qarshi va ba'zi bir boshqa emlash ham kiritiladi. Qandaydir cheklangan joyda, masalan, tulyaremiya, kana ensefaliti va boshqaning tabiiy o'choqlarida o'tkaziladigan emlash ham planli emlashga kiradi.

Emlash mahalliy va umumiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni emlangan joy shishishi, og'rishi (teri ostidan, teri ustidan, teri ichiga va muskul orasiga emlanganda), istima chiqarishi va umumiy darmonsizlik kuzatilishi mumkin. Bunday hollar yuz berganda uchastka vrachiga murojaat qilinadi va bu xolatlarning oldi olinadi.

Passiv immunitet yaratish uchun odam organizmiga immun zardoblar va gamma-globulinlar (tarkibida tayyor ximoya antitelalari bor preparatlar) yuboriladi. Bunday emlash organizmning ximoya imkoniyatini oshirish, xar qanday yuqumli kasallikka qarshi chidamlilik yaratish yoki boshlangan kasallikning kechishini yengillashtirish zarurati tug'ilganda qilinadi. Immun zardoblar va gamma-globulinlar, odatda, yuqumli kasallikka chalinganlar bilan muloqotda bo'lgan odamlarni ximoya qilish uchun, ularda kasallik paydo bo'lish

extimolini bartaraf etish uchun ishlatiladi. Immun zardoblar, odatda, muskul orasiga yuboriladi. Bu preparatlarga ortiqcha allergik sezgirlik bo'lmasa, odatda, xech qanday ta'sir sezilmaydi yoki juda sust seziladi. Ayniqsa pandemiya sharoitida emlash jarayonlari jadallik bilan amalga oshirildi. Bular o'zining samarali natijasini berdi.

Qadimgi Xitoy va Eron hakimlari umrida bir marta chechak va qizamiq bilan og'rigan kishi bu kasalliklar bilan boshqa og'rimasliklarini aniqlaganlar. Shunga asosan dastlabki variolatsiya (emlash) usullari ishlab chiqilgan; Xitoyliklar chechakka qarshi emlash-usulini qo'lladilar. Qadimgi Eroniyilar ilon zahariga qarshi "qabul qilmaslik" paydo qilish usulini ishlab chiqqanlar. Ular odamga asta-sekin oz-ozdan ilon zaharini berib borib, uning organizmida mazkur zaharga nisbatan immunitet paydo qilganlar. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatayotiki, tirik organizmlarda xususan, insonlar organizmida ham kasalliklarga qarshi immunitet xosil bo'ladi. Organizmni kasalliklardan ximoya qiladi. Bu xususiyatni qadimdan o'rganib, bilgan hakimlar, tabiblar, hozirgi tilda aytganda tibbiyot xodimlari ko'plab insonlarni xavfli, yuqumli kasalliklardan ximoya qilib qolgan. O'zimni olib borgan kuzatishlarimda ham ayniqsa pandemiya sharoitida, immuniteti kuchli insonlar tez sog'ayib, oyoqqa turganini ko'rdim.

Hozirgi kunda vabo, o'lat, chinchechak, toshmali terlama, bezgak kasalliklarining kamayishi yoki tugatilishi bu kasalliklarni keltirib chiqaradigan omillarga samarali kurashish natijasida erishilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, xozirda tibbiyot soxasi ancha jadal rivojlangan. Fan texnika yutuqlari ko'plab yangiliklarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Kasalliklarning ham yangicha davolash usullari ishlab chiqilmoqda.

Lekin eng xavfli, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish usullarining samaralisi bu emlashdir. Emlashning avzalliklari xaqida yuqorida ko'rib chiqdik. Bulardan ota-onalarga shularni tavsiya qilamanki:

Yosh chaqaloqlarni o'z vaqtida emlatishlarini;

O'zlari ham emlashlarni o'z vaqtida olishlarini;

Sog'lom turmush tarziga rioya qilishlarini;

To'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yishlarini;

Chaqaloqlarini yoshlik davrlaridanoq chiniqtirib borishlarini.

Yuqoridagi tavsiyalarning barchasi inson organizmi uchun kerakli tavsiyalar bo'lib, kasalliklarning oldini olishda juda muxim xisoblanadi.

Xar bir insonga xayotiga befarq bo'lmay, sog'lom turmush tarzini tanlab, xayotda baxtiyor, farovon bo'lib yashashlarini tilab qolaman. Zeroki, sog'liq bu eng qimmat boyligimizdur!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati bosh boshqarmasi, 25.07.2017 yildagi 0239-07/3 son qarori
2. <https://lex-uz.translate.google/docs/-5524039? x tr sl=uz& x tr tl=ru& x tr hl=ru& x tr pto=op.sc>
3. Salomatlik ensiklopediyasi Toshkent-1985 yil 468-b
4. A.Qodirov " Tibbiyot tarixi " «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
5. Davlat ilmiy-nashriyoti, 2005. 7-b
6. Y.M. Fayziyev. X.A. Fayziyeva " Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya" Toshkent - -IlmZiyo-2007 6-b